

малакасини ошириш бўйича соҳага оид меъёрий ҳуқуқий база шакллантирилиши лозим.

➤ туристларга мамлакатимиздаги тарихий обидалар, тарихий шахслар, давлатнинг ҳудудий ва маъмурий тузилиши, шунингдек, урф– одатлар ва анъаналар тўғрисида маълумот берувчи гид– таржимонлар ўзлари бераётган маълумотларнинг тўғрилиги ва асосланганлиги учун шахсан жавобгарлиги масаласи ҳамда уларга бериладиган жазо тури қонун ва қонун ости ҳужжатларида аниқ белгиланиши лозим.

➤ туризм соҳасини ривожлантириш ва туристик хизматлар истеъмолчиларининг ҳуқуқларини ҳимоя қилишни қўллаб қувватловчи миллий қонунчилик ва норматив ҳужжатларни такомиллаштириш;

➤ ижтимоий туризмни ривожлантириш ва қўллаб– қувватлаш;

➤ туристлар ҳавфсизлигига қўйиладиган талабларни кучайтириш ва бу соҳадаги ҳуқуқий ҳужжатларни қайта кўриб чиқиш;

➤ Давлат томонидан атроф муҳитни муҳофаза қилиш, маданий ва тарихий меросни асраб– авайлаш бўйича қонунчиликни мустаҳкамлаш.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора– тадбирлари тўғрисида»ги ПФ– 4861– сонли Фармони – www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора– тадбирлар тўғрисида”ги 2019 йил 5 январдаги ПФ– 5611 Фармони.

3. Гаагская декларация. Принцип 10. Принята на Межпарламентской конференции по туризму проведена в Гааге (Нидерланды) 1989 году совместно с Межпарламентским союзом (МПС) и Всемирной Туристской Организацией (ВТО).

4. Annual tourism report of Austria 2010

5. <https://pravacheloveka.uz/uz/news/turkiya-2022-yilda-turizmdan-463-mlrd-dollar-daromad-qilgan>

6. <https://www.gov.uz/uz/news/view/36597>

**Tursunqulov Jahongir Furqat o'g'li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2– bosqich
MEKP– 02– guruh magistri**

O'ZBEKISTONDA MINIMAL ISTE'MOL XARAJATLARI QIYMATINI HISOBLASH TARTIBI

Аnotatsiya. Ushbu maqola orqali Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab– quvvatlash borasidagi chora– tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhini aniqlash bo'yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishini talab etdi.

Kalit so'zlar: Minimal iste'mol xarajatlari, iste'mol, kambag'allik, kambag'allik chegarasi, minimal kilokaloriya, protsentil, real iste'mol qiymati, target guruhi, uy xo'jaligi, Engel koeffitsiyenti, uy xo'jaligi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy– huquqiy, ijtimoiy– iqtisodiy va ilmiy– ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida:

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab– quvvatlash borasidagi chora– tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhini aniqlash bo'yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishini talab etadi.

O'z navbatida, ushbu uslubiy yondashuv va bazani shakllantirish aholining turmush sharoiti va ijtimoiy holatini bevosita o'zida aks ettiruvchi, ya'ni ularning iste'mol tarkibi va xususiyatlari bo'yicha real holatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xususan, mamlakatimizda aholining kambag'al qatlamini aniqlash uslubini amaliyotga joriy etish va takomillashtirib borish amalga oshirilyapti, bir qator vazirlik va hukumat idoralari tomonidan Jahon bankining texnik ko'magi asosida minimal iste'mol xarajatlari qiymatining hisob– kitoblari tayyorlanadi [1].

2022– yildan boshlab, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali oilani kam ta'minlangan deb e'tirof etish jarayonida qo'llaniladigan va jon boshiga to'g'ri keladigan bir oylik daromad mezoni minimal iste'mol xarajatlariga tenglashtiriladi;

Minimal iste'mol xarajatlari tarkibini respublika iqtisodiyotining rivojlanishi hamda aholi daromad va xarajatlarining o'zgarishini inobatga olgan holda kamida har 5 yilda qayta ko'rib chiqadi [2].

Minimal iste'mol xarajatlari, kambag'allik chegarasi va uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari hamda tarkibini o'rganish;

Sog'lom hayot kechirish uchun zarur bo'lgan oziq– ovqat va nooziq– ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal iste'mol xarajatlar qiymatini hisoblash tamoyillari, bosqichlari va tartibi.

Minimal iste'mol xarajatlarini hisoblashda har bir uy xo'jaligi a'zolarining yoshi, tarkibidan kelib chiqqan holda tegishli koeffitsiyentlarni qo'llash;

Uy xo'jaliklari kuzatuvlari qamrovini bosqichma– bosqich oshirish;

kambag'allikni qisqartirishning yangi vositalarini amaliyotga joriy etishni nazarda tutuvchi chora– tadbirlar dasturini ishlab chiqsin.

Aholining real iste'mol xarajatlari, xususiyatlari va tarkibidan kelib chiqib, aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibini belgilaydi.

Minimal iste'mol xarajatlari BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki, FAO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash bo'yicha berilgan tavsiyalar asosida ishlab chiqiladi.

Kambag'allik – aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishiga yetarli darajada bo'lmashligi;

Kambag'allik chegarasi – aholining real xarajatlari tarkibidan kelib chiqib hisoblanadigan bir kishi uchun minimal iste'mol xarajatlari qiymati;

minimal iste'mol xarajatlari (keyingi o'rinlarda – minimal xarajatlar) – uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari va tarkibini o'rganish asosida ularning sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan oziq– ovqat va nooziq– ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymati;

minimal kilokaloriya – inson organizmining hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal energiyaviy qiymat;

protsentil – so'rovda ishtirok etgan uy xo'jaliklarini jon boshiga nisbatan jami xarajatlarga ko'ra 1 foizlik guruhlarga ajratish;

real iste'mol qiymati – so'rovnomada uy xo'jaligi tomonidan tovar va xizmatlar uchun amalga oshirilgan xarajatlarning puldagi ifodasi;

target guruhi – so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar orasidan iste'mol xususiyatiga ko'ra ajratib olingan kichik guruh;

uy xo'jaligi – ma'lum bir uy– joyda birga yashovchi, daromadlarini to'liq yoki qisman birlashtirgan holda umumiy ro'zg'or yurituvchi kishilar guruhi. Bunda uy xo'jaligi a'zolari o'rtasida qarindoshlik aloqalari bo'lishi shart emas;

uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv – uy xo'jaligi budjetining shakllanishi va taqsimlanishini aniqlash hamda ularning hayot darajasini kuzatishga yo'naltirilgan tanlanma so'rov usuli;

Engel koeffitsiyenti – uy xo'jaligining jami xarajatlari tarkibida oziq– ovqat mahsulotlari qiymatining ulushi.

Minimal iste'mol xarajatlarning uy xo'jaliklari tanlama kuzatuv natijalari asosida aholining real iste'moli tarkibidan kelib chiqib, statistik usul orqali hisoblashga mo'ljallangan [3].

O'zbekiston Respublikasida aholi minimal xarajatlari va kambag'allik chegarasini hisoblashda bir xil uslubiy yondashuvni ta'minlaydi.

Minimal xarajatlar qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblashda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan amalga oshiriladigan uy xo'jaligi tanlanma kuzatuv natijalari asosida shakllanadigan aholi iste'moli, daromad miqdori va tarkibi;

uy xo'jaliklari iste'molining kilokaloriyadagi qiymatini aniqlash uchun oziq– ovqat mahsulotlarining energiyaviy qiymati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Minimal xarajatlar qiymati quyidagi tamoyillarga asoslanib hisoblanadi:

aholi tanlovi va moliyaviy imkoniyatlari kabi iste'mol tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning inobatga olinganligi;

aholi oziq– ovqat mahsulotlari iste'moliga sarflagan amaldagi xarajatlarning e'tiborga olinganligi;

aholining real talabidan kelib chiqib hamda demografik holatning o'ziga xosligini inobatga olgan holda, nooziq– ovqat mahsulotlari turlari va tarkibining inobatga olinganligi;

aholining zarur xizmatlar xarajatlari qiymatini hisoblashda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan bepul xizmatlarning e'tiborga olinganligi;

minimal xarajatlar qiymati aholi real iste'moli tarkibidan kelib chiqqanligi sababli ularda boqimandalik kayfiyatini rag'batlantirishga yo'l qo'yilmasligi;

minimal xarajatlar qiymatini aholi bilan bevosita so'rov o'tkazish orqali aniqlanishi.

Minimal xarajatlarni hisoblash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan joylarga chiqqan holda uy xo'jaliklarining iste'moli, daromadi va yashash sharoitini inobatga oluvchi so'rovnoma o'tkaziladi;

ikkinchi bosqichda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda uy xo'jaliklari kesimida iste'mol qilingan oziq- ovqat va nooziq- ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar qiymati real iste'mol qiymatidan kelib chiqib, target guruhi uchun respublika o'rtacha narxlarida hisoblab chiqiladi;

uchinchi bosqichda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda uy xo'jaliklarining aholi jon boshiga iste'mol hajmidan kelib chiqib, o'sish tartibida detsillarga (10 foizlik guruh) bo'linadi va eng kam iste'molga ega bo'lgan birinchi uch guruhdagi uy xo'jaliklari (target guruhi) ajratib olinadi;

to'rtinchi bosqichda, kambag'al aholining oziq- ovqat mahsulotlari xarajati asosida bir kilokaloriyaga sarflangan qiymat aniqlanadi;

beshinchi bosqichda, bir kilokaloriya qiymati Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti taklif etgan energiya qiymatiga (2 200 kkal) ko'paytirilib, minimal oziq- ovqat xarajatlari aniqlanadi;

oltinchi bosqichda, target guruhining umumiy xarajatlaridagi oziq- ovqat mahsuloti ulushi aniqlanadi;

yettinchi bosqichda, minimal oziq- ovqat xarajatlarini Engel koeffitsiyentiga bo'lish orqali bir kishi uchun minimal xarajatlar aniqlanadi [4].

Uy xo'jaliklari tomonidan oziq- ovqat, nooziq- ovqat mahsulotlari va xizmatlarga sarflangan iste'mol xarajatlari qiymati real iste'mol narxlaridan kelib chiqib, respublika o'rtacha narxlariga o'tkaziladi.

$$M_n = m_n * H_n, \text{ bunda:}$$

M_n — uy xo'jaligi tomonidan n turdagi mahsulot iste'moliga sarflangan xarajatlarning target guruhi uchun o'rtacha respublika narxlaridagi qiymati;

m_n – uy xo'jaligi tomonidan n turdagi mahsulot iste'moli miqdori (kg, litr, dona va boshqalar);

H – n turdagi mahsulotning real iste'mol narxlarining o'rtacha respublika narxi.

Misol uchun, uy xo'jaligi bir oyda 5 kg kartoshka iste'mol qilsa, bunda ushbu mahsulotning respublikadagi o'rtacha yillik narxi 4500 so'mni tashkil etsa, bu holda:

$$5 \text{ kg} * 4500 \text{ so'm/kg} = 22\,500 \text{ so'm.}$$

Uy xo'jaligi tomonidan iste'mol qilingan oziq- ovqat, nooziq- ovqat mahsulotlari va xizmatlarning yig'indisi orqali uy xo'jaligi jami o'rtacha oylik iste'mol xarajatlari qiymati aniqlanadi.[5]

$$JI_m = OX_m + HOX_m + XX_m, \text{ bunda:}$$

JI_m – m uy xo'jaligining jami iste'mol xarajatlari qiymati;

OX_m – m uy xo'jaligining oziq- ovqat mahsulotlariga sarflagan jami xarajatlari qiymati;

HOX_m – m uy xo'jaligining nooziq- ovqat mahsulotlariga sarflagan jami xarajatlari qiymati;

XX_m – m uy xo'jaligining xizmatlarga sarflagan jami xarajatlari qiymati.

Har bir uy xo'jaligi jami iste'mol xarajatlari qiymatini uning a'zolari soniga bo'lish orqali aholi jon boshiga jami iste'mol xarajatlari qiymati aniqlanadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi jami iste'mol xarajatlari qiymatiga ko'ra uy xo'jaliklari tartiblanadi va protsentillarga bo'linadi.

Uy xo'jaliklarining oziq- ovqat mahsulotlari iste'moli miqdoridan (kg, litr, dona va boshqalar) kelib chiqib, oziq- ovqat iste'molining jami kilokaloriya qiymati aniqlanadi.

Uy xo'jaliklari oziq- ovqat iste'molining bir kilokaloriya qiymati quyidagicha aniqlanadi[6]:

$$1 \text{ kkal} = \frac{OX_m^{\text{жс}}}{IK_m^{\text{жс}}}, \text{ бунда:}$$

1 kkal — uy xo'jaligi iste'mol qilgan 1 kilokaloriyaning qiymati;

OX_k – m uy xo'jaligining iste'mol qilgan oziq- ovqat xarajatlari;

IK_k – m uy xo'jaligi iste'mol qilgan kilokaloriya miqdori;

Masalan, 5 kishidan iborat uy xo'jaligi bir kunda 53 463 so'mlik maxsulot sotib olib iste'mol qilsa 11 750 kkal energiya oladi u holda 1 kkal energiya narxi quyidagicha aniqlanadi:

$$1 \text{ kkal} = \frac{53\,463}{11\,750} = 4,6 \text{ сўм}$$

Target guruhida bir kishi uchun o'rtacha bir kilokaloriya qiymatini kunlik minimal kilokaloriyaga ko'paytirish orqali kunlik minimal oziq- ovqat xarajatlarining qiymati aniqlanadi:

$$MOX = 1 \text{ kkal} * N_{\text{kkal}}, \text{ bunda}$$

MOX – kunlik minimal oziq- ovqat xarajatlari qiymati;

N_{kkal} – bir kishi uchun kunlik minimal kilokaloriya.

Kunlik minimal oziq- ovqat xarajatlari qiymatini 30,41 ga (365/12) ko'paytirish orqali mazkur ko'rsatkichning o'rtacha oylik qiymati aniqlanadi.

Masalan, agar bir kilokaloriya narxi 4,6 so'm va bir kishi uchun kunlik minimal kilokaloriya 2 200 ga teng bo'lsa, o'rtacha oylik minimal oziq- ovqat xarajatlari qiymati quyidagicha aniqlanadi[7]:

$$MOX = 4,6 * 2200 * 30,41 = 304\,404 \text{ so'm.}$$

Uy xo'jaligining o'rtacha oylik jon boshiga nisbatan oziq- ovqat mahsulotlariga sarflangan xarajatlarining umumiy xarajatlardagi ulushini aniqlash orqali har bir uy xo'jaligining Engel koeffitsiyenti hisoblanadi.

$$\text{Энг}_m = \frac{OX_m^{\text{жс}}}{ЖИ_m^{\text{жс}}} \times 100\% , \text{ бунда:}$$

Eng_m — Engel koeffitsiyenti;

$OX_m^{\text{жс}}$ — m uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami oziq- ovqat xarajatlari qiymati;

$ЖИ_m^{\text{жс}}$ — m uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami xarajatlari qiymati.

Masalan, agar uy xo'jaligining jami iste'moli tarkibida oziq- ovqat xarajatlari 304 404 so'm, jami xarajatlari 439 860 so'm bo'lsa, u holda quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Энг} = \frac{304\,404}{439\,860} \times 100\% = 69\%$$

Minimal oziq- ovqat xarajatlari qiymatini Engel koeffitsiyentining o'rtacha miqdoriga bo'lish orqali bir kishi uchun o'rtacha oylik minimal xarajatlari qiymati aniqlanadi.[8]

$$MX = \frac{MOX}{\text{Энг}} \times 100\% , \text{ бунда:}$$

Masalan, tanlangan guruh bo'yicha o'rtacha Engel koeffitsiyenti 69 foiz, minimal oziq- ovqat xarajatlari 304 404 so'm bo'lsa, u holda:

$$MX = \frac{304\,404}{69} \times 100\% = 439\,860 \text{ c\u0443m.}$$

Minimal xarajatlar hisoblangan yil bazaviy yil bo'lib, kelgusi yil uchun minimal xarajatlar oziq- ovqat, nooziq- ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlari darajasidan kelib chiqib, indeksatsiya qilib boriladi.

Bunda iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi oziq- ovqat, nooziq- ovqat mahsulotlari va xizmatlarning narxlari o'zgarishi va ularning minimal xarajatlardagi ulushlari ko'paytmasining yig'indisi orqali minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishi hisoblanadi.

$$MX_{\text{inf}} = MOX_{\text{ind}} * Inf_{\text{oo}} + HOX_{\text{ind}} * Inf_{\text{no}} + XX_{\text{ind}} * Inf_{\text{xiz}}, \text{ bunda}$$

MX_{inf} — minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishi;

MOX_{ind} — minimal oziq- ovqat xarajatlarning minimal xarajatlardagi ulushi;

Inf_{oo} – iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi oziq- ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi;

HOX_{ind} — minimal xarajatlar tarkibida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi;

Inf_{no} — iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi nooziq- ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi;

XX_{ind} — minimal xarajatlar tarkibida xizmatlarning ulushi;

Inf_{xiz} — iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi xizmatlar narxining o'zgarishi.

Minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishini o'tgan davrdagi minimal xarajatlar qiymatiga ko'paytirish orqali hisobot davrida minimal xarajatlar qiymati aniqlanadi.

$$MX_t = MX_{t-1} * MX_{\text{inf}}$$

Kambag'allik darajasi – xarajati (yoki daromadi) minimal xarajatlar qiymatidan past bo'lgan aholining jami aholiga nisbati orqali aniqlanadi [9].

1– jadval

Aholining minimal xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash SXEMASI[10]

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlar	Mas'ul organlar
1– bosqich	Minimal xarajatlar qiymatining prognoz parametrlarini inflatsiya kutilmalaridan kelib chiqib hisoblash	Har yili avgust oyida	Iqtisodiyot va Moliya vazirligi
2– bosqich	Minimal xarajatlar qiymatining prognoz ko'rsatkichlarini kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari parametrlarini shakllantirishda inobatga olish	Har yili dekabr oyida	Iqtisodiyot va Moliya vazirligi

3– bosqich	Yillik minimal xarajatlar va kambagʻallik darajasining amaldagi qiymatini eʼlon qilish	Hisobot yilidan keyingi yilning 20–yanvariga qadar	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi
4– bosqich	Minimal xarajatlar tarkibini respublika iqtisodiyotining rivojlanishi hamda aholi daromad va xarajatlarning oʻzgarishini inobatga olgan holda qayta koʻrib chiqish	Har besh yilda	Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Umuman olganda, Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir boʻlayotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, “aholi daromadlari” tushunchasining taʼrifi, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi oʻzgarishlarning yoʻnalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil daromadlar siyosatini oʻtkazish asosida daromadlarning yuzaga kelishi va oʻsishi masalalarini koʻrib chiqishni taqozo etadi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017– 2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida
2. 2022– 2026– yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida
3. T.Turgunov, I.Jalolov “Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistic baholash: milliy va xalqaro tajriba” – “Jamiyat va boshqaruv” №4, 2018 y.
4. X.Abdurahmonov (2017) “Aholi daromadlari va turmush sifati”.– T.: Iqtisod moliya.
5. X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov (2014)) “Aholi daromadlari va turmush sifati” .– T.: “Tafakkur Boʻstoni”, – B. 5– 10
6. X.Q.Abdurahmonov, N.Q.Zokirova. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2013. – 536 b.
7. Abdurahmonov Q.X., Toxirova X., Sharipov B. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. – Toshkent, 2006.
8. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti”. Darslik. – T.: MEHNAT, 2009.
9. Q.X. Abdurahmonov “Inson taraqqiyoti”. Darslik, – T.: Fan va texnologiya, 2013.
10. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi maʼlumotlari.